

**O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI
TAMINLASHDA KONFESSIYALAR ARO MULOQOTNING IJTIMOIIY
FALSAFIY AHAMIYATI.**

Normatov Sanjar Abdug'ani o'g'li
Jizzax davlat pedagogika instituti "Falsafa,
tarbiya va huquq ta'limi" kafedrası o'qituvchisi
+998995581392

Annotatsiya:

Ushbu maqolada O'zbekistonda millatlar aro totuvlikni taminlashda konfessiyalar aro muloqotning ahamiyati. Shu bilan birga konfessiyalar aro muloqotning ijtimoiy falsafiy taxlili va muloqot tadqiq etishning ilmiy nazariy masalalari o'rganilgan. Konfessiyalar aro muloqotlarning xilma-xilligi va ularning o'ziga xosligini tadqiq etildi va hamkorlik munosabatlarini mustahkamlashning ahamiyati o'rganildi.

Kalit so'zlar. Muloqot, Konfessiya, munosabatlar, hamkorlik, ijtimoiy guruh, jamiyat, bag'rikenglik, aloqa, muvozanat, inson

Аннотация:

В статье рассматривается важность межконфессионального диалога в обеспечении межнационального согласия в Узбекистане. Кроме того, изучаются социально-философский анализ межконфессионального общения и научно-теоретические вопросы изучения коммуникации. Были изучены разнообразие и уникальность межконфессионального диалога, а также важность укрепления партнерских отношений.

Ключевые слова: Общение, Признание, Отношения, Сотрудничество, Социальная группа, Общество, Толерантность, Общение, Баланс, Человек

Annotation:

This article discusses the role of interfaith dialogue in ensuring interethnic harmony in Uzbekistan. At the same time, the socio-philosophical analysis of interfaith communication and the scientific and theoretical issues of the study of communication are studied. The diversity and uniqueness of interfaith dialogue were explored, and the importance of strengthening partnerships was explored.

Keywords: Communication, Confession, Relationships, Cooperation, Social Group, Society, Tolerance, Communication, Balance, Human,

Muloqot inson va jamiyat borlig'ining tub ildizi ularni shakllanish va rivojlanish usulidir. Muloqot ta'sirida inson o'z-o'zini va boshqalarni anglab yetadi. Inson o'z –o'zi va boshqalar bilan muloqotga kirishish jarayonida hayot qiyinchiliklarini yengib o'tish, turli kundalik-amaliy , ilmiy nazariy va hokazo muammolarni hal qilish yo'llarini topadi. Xuddi shundayin, turli ijtimoiy guruhlar, millatlar, xalqlar, davlatlar, jamiyatlar, konfessiyalar o'rtasidagi o'zaro samimiy muloqot asosida ular orasidagi munosabat yaxshilanadi va ular ravnaq topadi. Ayni paytda jamiyatda adolatning va inson huquqlarining qaror topishida, kishilarning o'rtasidagi muloqot jarayoni muhim o'rin tutadi.

Darhaqiqat, jamiyatda hal qilinmagan muammolar muloqot jarayonida o'z yechimini topib jamiyatda muvozanat yuzaga kelib, jamiyat taraqqiyoti yuksalaveradi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2017 yil 22 dekabr kuni Oliy Majlisga murojaatida ta'kidlaganidek; "Biz mamlakat hayotiga doir har bir qarorni xalqimiz bilan maslahatlashib, bevosita muloqot asosida qabul qilmoqdamiz". Shundan ham ko'rishimiz mumkinki jamiyatni rivojlanishi uchun muloqotning to'g'ri yo'lga qo'yilishi muhim qadam hisoblanadi. Zero hozirgi kunda jahonda globallashtirish jarayoni ketayotgan, chuqurlashayotgan hamda global muammolar va ziddiyatlar ko'payib borayotgan bir davrda jamiyatda turli konfessiyalar o'rtasidagi muloqot jarayonini yo'lga qo'yish, insoniylashtirish dolzarb masala ahamiyat kasb etmoqda.

Insonning o'z o'zini anglashi shaxslararo munosabatlarning yaxshilanishi turli-tuman ijtimoiy munosabatlarning qaror topishi va mustahkamlanishida muloqot bosh bug'in bo'lib hisoblanadi. Yani ayrim kishi muayyan ijtimoiy guruh, konfessiyalarning qandayligi va istiqbolida qay darajada turishi, ular o'rtasidagi muloqotning qanday prinsiplar asosida o'rnatilganligiga bog'liq. Shuning uchun

barcha tarixiy davrlarda insoniyatning eng ilgʻor kishilari faylasuflar muloqot masalasiga asosiy eʼtibor berib kelgan. Muloqot borasida eng avval Suqrotning gʻoyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu masala boʻyicha Suqrot shubhasiz jamoatchilikning murosaga kelishi va ishonchini shakllantirishning eng yaxshi usuli sifatida yuzma-yuz yuz muloqot qilishni ragʻbatlantirgan. “Suqrotning fikricha muloqot jarayonida adolatlilik, mardlik, yaxshilik, haqiqat, reallik va shu kabi tushunchalarni tahlil yetish yordamida vujudga keladigan tushunish mustahkam va oʻzgarmasdir. Shu maʼnoda konfessiyalararo muloqotning tashkil etishi ham oʻzaro munosabatlarning mustahkamlanishiga olib keladi. Maʼlum tushunchalarni tahlil etar ekanmiz konfessiyalararo munosabatlarning aslida qanday holda boʻlishini idrok qilishimiz mumkin”.¹ Muloqot davomida mavjud narsa va qadriyatlarning ijobiy tomonlarini anglash adolatga yoʻgʻrilgan gʻoyalarni toʻgʻri idrok etishga qaratilgan bilimlar olishga zamin yaratiladi. Jamiyatda biz odamlar bilan muloqot qilar ekanmiz insonlarning qilayotgan ishlari hayotiy holatini oʻylashga ularning amallari, soʻzlarini, belgilagan asosiy tamoyillar va qarashlari haqida fikr yuritishga toʻgʻri keladi. Shu muloqot davomida suhbatdoshi gap nimada haqida ketayotganini tushunishi va buni anglashi muhimdir. Shu sababli muloqot dovomida falsafiy mushohadalarida insonni oʻzligini anglashiga va oʻz menini topishi mumkin. Konfessiyalarning etiqodiy qarshlarini oʻz aro xurmat qilgan xolda bir-biri bilan muloqotga kirishishi ularning maʼnaviy dunyosi boyishiga xizmat qiladi.

Konfessiyalar muloqot orqali hamkorlikning umumiy ahamiyatini tushunish mumkin. Shu maʼnoda maʼlum bir ijtimoiy guruhning maqsad va muddaolarini bilish ham juda muhim ahamiyat kasb etadi bu haqda Aflotun quydagicha fikr bildiradi “Falsafa bilimning boshqa sohalaridagi kabi bayon qilishga yoʻl qoʻymaydi; biroq faqat uning predmeti va shu predmet bilan hayot haqidagi uzoq muddatli suhbatdan keyingina goʻyo toʻsatdan dilda mashʼaladan nur chaqrab

¹ Gunnar S. Nils G. Falsafa tarixi. “Sharq” nashriyoti T -2002 y 77-bet

ketganday bo‘ladi”² Aflotinning muloqotga oid falsafiy fikridan shuni anglashimiz mumkinki muloqot ijtimoiy guruhlarini yaqinlashtiradi. Ular o‘rtasida munosabatni rivojlantiruvchi yangi yo‘nalishdagi hamkorliklar uchun yo‘l ochadi. Muloqotning bu xususiyati kishilarning muloqot jarayonida birgalikdagi faoliyatda bir-birlariga amaliy jihatdan bevosita ta‘sir etishlarini ta‘minlaydi. Shu tufayli odamlar hamkorlikda ishlash, bir-birlariga yordam berish, bir-birlaridan o‘rganish, harakatlar muvofiqligiga erishish kabi qator qobiliyatlarini namoyon etishlari mumkin.³

Ayrim hollarda muloqot jarayonida haqiqat yoki ifoda yetishning yolg‘onligini kafolatlaydigan ideal metod bo‘lishi mumkin emas. Bu muloqotdagi nutq chinakam samimiylik va tasodifdir, shu sababdan ham muloqotni Gusserl o‘zing fenomenologiya nuqtai nazaridan o‘tkazgan turli tadqiqotlarida foydasiz ekanligini keltirgan, chunki, ideal qiymat maqomini kafolatlamochi bo‘lgani sababli ham muloqot bundan mustasno bo‘lishi lozim edi. Biroq keyinchalik u ideal qiymat nazariyasini o‘zgartirdi. Gusserl yakka shaxsni o‘zni kamol toptirishga intilishni sub‘ektni anglashga bo‘lgan harakat sifatida qo‘llagan bo‘lsada, vaqt o‘tishi bilan monolog emas balki muloqot inson qadriyatlarini asosiy debochasi ekanligiga ishora qilgan. Shu jihatdan diniy konfessiyalar o‘rtasida muloqotning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi jamiyatning mustaxkamligini ta‘minlaydi.

Muloqot masalasida Xaydeger ta‘limotida inson o‘z menini anglashida monologik muloqotning ahamiyati mutlaqlashtirmagan holda inson bilan inson o‘rtasidagi muloqotning ahamiyatiga ko‘proq e‘tibor beradi. Chunki, inson ijtimoiy jonivor sifatida doimo bir biri bilan muloqotda bo‘lishni taqozo etadi. Xeydeger bu munosabatlar inson o‘zligidagi kamchiliklarni aniqlashda yordam berishini va shu bilan birga o‘z menini takomillashtirishi mumkinligini nazarda tutgan. Bir so‘z bilan aytadigan bo‘lsak, inson o‘zidagi kamchiliklarni ko‘ra boshlaydi ichidagi

² The seventh Letter 341, Translation by J.Harward, Gampridge University Press, 195

³ <https://uz.delachieve.com/muloqotning-interaktiv-tomoni-umumiy-xususiyatlari/>

ichki imkoniyatlari haqida o‘ylay boshlaydi, bu haqda tafakkur yuritadi shu asnoda o‘z shaxsiy menini mukammallashtirishga imkoniyat vujudga keladi.

Faylasuf Karl Yaspersning ekzistentsializm falsafasida muloqot nazariyasi orqaga tarixan qaytadigan ijtimoiy shartnoma nazariyasiga qarshi kurash sifatida shakllandi, deya ta’kidlagan. Muloqot nazariyasi tarafdorlari (Yaspers, Emanuyel Muniyer,) ta’kidlagandek, ijtimoiy shartnoma bu bitim hisoblanib, bunda barcha ishtirokchilar kelishilgan holda o‘zlari uchun ma’lum qonun-qoidalar tuzadi va uni bajarish barcha uchun majburiyat yukni yuklaydi. O‘zaro muloqot qilgan holda qonun-qoidalarga bo‘ysunib faoliyat olib borishni nazarda tutadi. Shu jihatdan ham diniy konfessiyar o‘rtasida o‘zaro kelishuv shartnomasi asosida muloqot bilish yoki affektiv-baholash xususiyatiga ega bo‘lgan axborot almashinuvida ularning o‘zaro ta’sirlashuvi sifatida ta’riflanadi yana bir boshqa tarifda esa muloqot – konfessiyalar o‘rtasida hamkorlik faoliyati ehtiyojidan yuzaga keladigan va axborot almashinuvi, o‘zaro ta’sirning yagona yo‘lini ishlab chiqish, boshqa guruh jamoa yoki konfessiyalarning idrok qilish va tushunishdan iborat bo‘lgan aloqalarni o‘rnatish va rivojlantirishning murakkab, keng qamrovli jarayoni deyiladi.

Konfessiyal o‘rtasida muloqot o‘zining maxsus masalalari hal etiladigan ma’lum bosqichlarga ega. Eng muhim bosqich – muloqotni rejalashtirish, konfessiya uchun muloqot natijalariga qaratilgan mayllarni aniqlab olish zarur. Muloqotning birinchi bosqichi – aloqaga kirishishdir. Bunda vaziyatga kirishish, hamkorlik qilmoqchi bo‘lgan konfessiyaning holati, kayfiyatini his etish, o‘zaro kirishib ketib, o‘zlari uchun maqul bo‘lgan yo‘nalishini belgilab olishga imkon yaratish muhimdir. Bu davr umumiy aloqa o‘rnatilishi bilan yakunlanadi. So‘ngra qandaydir muammo, tomonlarning vazifasi va mavzuni ishlab chiqishda diqqatni jamlash davri boshlanadi. Keyingi bosqich – motivatsion zondaj. Ularning maqsadi – bir-birlarining motivlari va qiziqishlarini anglash va shu orqali munosabatlarni tizimli o‘zaro ma’nafatlar asosida yo‘lga qo‘yish kelishiladi. Eng oxirgi daqiqalar, yakuniy so‘zlar, qarashlar, qo‘l siqishlar o‘ta muhimdir, ba’zida ular ko‘p vaqt

davom etgan suhbat natijasini butunlay o'zgartirib yuborishi mumkin. Aynan muloqot yordamida insonlar umumiy jamiyat mafaatlari qondirish uchun birgalikda harakat qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Muloqot jarayonida insonlarning xulq-atvorining muayyan obraz va modellari shakllanib, keyinchalik ular interiorizatsiyalanadi. Muloqot davomida ijtimoiy va shaxsiy munosabatlar amalga oshadi, uning vositasida hamkorlikdagi faoliyat ro'yobga chiqariladi. Shu ma'noda aytadigan bo'lsak, muloqot globallashtirilgan dunyoda turli millat ijtimoiy guruh va konfessiyalar o'rtasida doimiy axborot almashinuvini ta'minlashi bejiz emas, zero muloqot inson hayoti va faoliyatining muhim shartidir.

Ijtimoiy guruhlar o'rtasida muloqot madaniyatini rivojlantirish boshqalarni to'g'ri idrok etish qobiliyatlari rivojlantirishni, umuman olganda, o'zaro munosabat paytida konfessiyaning o'ziga xos holatini, uning ichki holatini va kayfiyatini aniqlay olish qobiliyatini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Har bir jamoa shundan kelib chiqib, tegishli uslubni, shuningdek, aloqa ohangini tanlaydi. To'g'ri tanlov asosida muloqot qilgandagina, xotirjamlik bilan do'stona munosabatlarni o'rnatish mumkin. Konfessiyalararo muloqot madaniyati nutqni, aqliy xususiyatlarni, o'ziga xos ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishga asoslangan aloqa madaniyatini o'z ichiga oladi.

Muloqot — hamkorlikdagi faoliyat ehtiyoji bilan taqozolangan aloqa o'rnatish va uni rivojlantirish jarayoni deyilsa ikkinchi jihatdan esa Muloqot — belgilar tizimi orqali subyektlarning o'zaro ta'sirlashuvi deya ta'rif beriladi. Umuman olganda muloqot insonlarning psixologik ehtiyojini qondiruvchi ozuqa vazifasini ham bajaradi. Muloqot — odamlar va ijtimoiy guruhlar o'rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir. Muloqot inson, millat, xalq va jamiyatning mavjudlik yashash usuli. Hozirgi kunda va kelajakda ularning qanday bo'lishi ular o'rtasidagi muloqotning to'g'ri yo'lga qo'yilganligiga bog'liq. Shuning uchun bugungi kunda jahonda va xususan mamlakatimizda ham ushbu masalaga asosiy e'tibor

berilmoqda. Shu asosda mamlakatimizda konfessiyalar o'rtasida muloqotni o'rnatish va uni rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda.